



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

"MA'RIFAT" TARG'IBOTCHILAR JAMIYATI

QORI NIYOZIY NOMLI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**"UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY
TARBIYANI SHAKLLANTIRISH VA
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB VAZIFALARI"**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani

TO'PLAMI

2025-yil 19-may

"Uzluksiz ta'lism tizimida ma'naviy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb vazifalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaloiy konferensiyasi to'plami // Toshkent, 2025-yil 19-may. – 767 b.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sen Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagagi "Umumiyl o'rta ta'lism muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sen Qarori, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrdagi Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining kengaytiriilgan yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalar, Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi "2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 490-sen buyrug'i 2-ilova 101-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Huquqiy fanlar" kafedrasi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatni, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, Qori Niyoziy nomli Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi hamkorligida **2025-yil 19-may** kuni "**Uzluksiz ta'lism tizimida ma'naviy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb vazifalari**" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaloiy konferensiyasi o'tkazildi.

Tahrir hay'ati:

Saidov Shoxrux – kafedra mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Utamuradov Akbar - falsafa fanlari nomzodi, professor;

Tuychiyev Berdikul - falsafa fanlari doktori, professor;

Agzamxodajyeva Saida - falsafa fanlari doktori, professor;

Yusubov Jaloliddin - falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent;

Xudaynazarov Samad - falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Atavullayev Mirkomil - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Yusubov Jamshid - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Berdikulova Surayyo - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b.;

Jamalova Nargiza – katta o'qituvchi.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Shaporov O'lmas - O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti.

Maqolalarning to'g'ri va aniqligiga mualliflar mas'uldir.

© Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent.

Yoshlar ma'naviyati, odob-axloqi, bag'rikengligini yuksaltirishning ko'rib chiqilayotgan turlari umumbashariy emas, balki yoshlarning ichki dunyosining ma'naviy-axloqiy sohasida amaliy natijalarga erishishning amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qonuni . www.lex.uz

2.Oliy pedagogik o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishning ilmiy asoslari. (Respublika ilmiy-metodik konferensiyasining materiallari). -Toshkent: 2000.

3. Pedagogik konfliktologiya- Samarqand, o'quv-uslubiy qo'llanma 2021-505b.

4. Sh.Tadjibayeva "Ta'lim sub'ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish pedagogik shart-sharoitlari" nomli monografiya, "Ilm ziyo zakovat"- Toshkent, 2023-135b.

5. Темина С.Ю. Конфликты школы или школа конфликтов. -М.: МПСИ,- 2002,-144с

6. Холмуминова Б. А. Причины и некоторые особенности педагогических конфликтов // Молодой ученый. -2016. -№10.

YOSHLARNI MA'NAVIY TARBIYALASHDA INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALAR TASNIFI

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich
falsafa doktori (PhD), dotsent
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviyat jamiyatning turli sohalarini qamrab olishi, innovatsion xarakterdagи milliy g'oyalarning yoshlар g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy-ma'naviy hayotiga tatbiq etilishi, ularni bunyodkor g'oya, mafkura ruhida tarbiyalash, jamiyat hayotini rivojlantirishning innovatsion g'oyalari tizimi haqida ilmiy fikrlar bayon qilinganligi, ma'naviyatni yoshlар dunyoqarashiga ta'sirini oshirishda fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish, ma'naviyatni targ'ibot qilishdagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi shu soha faoliyatini yangilash, o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlari: Jamiyat, innovatsiya, ma'anviyat, mafkuraviy, qadriyat, Vatanga sadoqat, insonparvarlik, bunyodkor g'oya, milliy g'urur, milliy g'oya, buzg'unchi g'oya.

Ma'naviyatni rivojlantirish yangi innavatsiyon texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq. Chunki bu - ma'naviyatni yoshlар dunyoqarashiga ta'sirini

ta'minlovchi muhim vositadir. Shu bois, hozirgi vaqtida ma'naviyatni yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini oshirishda fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birgalikda, ma'naviyatni targ'ibot qilishdagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita shu soha vakili faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishslash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda ijtimoiy-siyosiy hayotga yangiliklar olib kirish orqali mafkuraviy qarashlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi [1]. Agar innovatsion g'oya shunday mazmunga yo'g'rilmagan bo'lsa u, albatta, yana bir yangi tipdagi buzg'unchi g'oya va qarashlarni keltirib chiqarishi muqarrardir.

Demak, innovatsiya, eng avvalo, o'z davri nuqtayi nazaridan asoslashni taqozo etadigan murakkab sotsiomadaniy fenomendir. Bundan tashqari, innovatsiya sotsiomadaniy hodisa sifatida o'z mohiyatiga, nafaqat, zamonaviy madaniyatning barcha tendensiyalarini, balki u yangilikka yo'nalgan fenomen sifatida madaniyatning kelajagini ham singdiradi. Bizning fikrimizcha, innovatsiyaga yangi postindustrial rivojlanish bosqichi ob'ektivlashuvining sotsiomadaniy modeli, deb ta'rif berish maqsadga muvofiq.

A.I.Prigojning fikricha, "yangilik kiritish maxsus mexanizm sifatida ko'plab aniq maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishlarda o'z o'rniga ega" [2]. Shunday ekan, innovatsiya tushunchasining genezisi va uning zamonaviy adabiyotlardagi ta'riflarining tahlili innovatsiyaning madaniyatlashuvini tadqiq etish va shu orqali madaniyatga tashqi omillarni kiritish hamda uning tarkibida yangilikni qaror toptirish mexanizmi sifatida yuzaga kelib, XXI asrda texnik-iqtisodiy muammolar doirasida yangilikni ob'ektivlashtirish, madaniyat ichki salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan mexanizm sifatida ta'kidlash imkonini beradi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni umumlashtirgan holda "innovatsiya" tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin, deb hisoblaymiz: Innovatsiya ijtimoiy-ma'naviy borliqni takomillashtirishga qaratilgan yangicha yondashuv, usullar va g'oyaviy ishlanmalar tushuniladi.

Ushbu falsafiy ta'rifdan ham ko'rinish turibdiki, har qanday innovatsion g'oya jamiyatning ideosferasida quyidagicha ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi: Har qanday yangilik, eng avvalo, g'oyadan boshlanadi. Shuning uchun ham jamiyat hayotining mafkuraviy sohasini muntazam ravishda takomillashtirib borish uchun, avvalo, zamonaviy ma'naviyat kerak bo'ladi. Bunday g'oya, birinchi navbatda, olimlar va boshqa faol fuqarolar tomonidan ilgari suriladi. Modomiki, jamiyat hayotini rivojlantirishning innovatsion g'oyalar tizimi haqida ilmiy fikrlar bayon qilingan ekan, endi uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish

lozim bo'ladi. Bunda e'tiborni yaratilgan innovatsion ma'naviyat asosida ilm-fan va texnika-texnologiyalar orqali amalga oshirilgan ilmiy ishlanmalarning qanday natijalar berishiga qaratish zarurdir. Ma'naviyat jamiyatning turli sohalarini qamrab oladi va innovatsion xarakterdagi milliy g'oyalarning yoshlar g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy-ma'naviy hayotiga tatbiq etilishi ularni buniyodkor g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash va boshqarish ishlarining samarali tarzda tashkil etilishiga olib keladi[3].

O'z navbatida, innovatsiyalar texnologiyalar asosida ma'naviy sohaga yangiliklar olib kirish orqali yoshlar ongi va qalbida milliy mafkurani shakllantirishimiz bugungi kunning dolzarb jihatlardan biridir.

Fikrimizcha, yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda innovatsion yondashuvlardan faol foydalanish uchun:

- a) ularda innovatsion tafakkurni shakllantirish;
- b) intellektual salohiyatini zamon talablari darajasida rivojlantirish;
- v) jamiyatda yoshlar ijtimoiylashuvini rivojlantirish, ya'ni turli ijtimoiy guruh va qatlamlar bilan yagona maqsad yo'lida hamkorlikni mustahkamlash;
- g) innovatsion g'oyalarning moddiy jihatdan to'liq ta'minlanishiga erishish;
- d) yaratilgan innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tizimli ravishda tashkil qilib borish lozim.

Ma'naviyatni targ'ib qilishda innovatsiya shu soha sifatini yaxshilash maqsadini ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, ma'naviyat tizimida shakllangan yangicha yondashuvlardan iborat bo'ladi. Mazkur yondashuvlar tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ma'naviyat tizimining konseptual mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli asos bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlar asosida yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda quyidagilarga alohida e'tiborni qaratish lozim, deb o'ylaymiz:

1. Yoshlar qalbida Vatanga sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini yanada yuksaltirish;
2. Milliy an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilgan davra suhbatni va uchrashuvlar tashkil qilish;
3. Yoshlar ongiga oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g'urur va iftixon, barkamol inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni singdirish;
4. Ma'naviyat targ'ibotini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligida tashkil etish;
5. Islom dini va falsafasini o'rganishni milliy g'oya tamoyillari asosida amalga oshirish;
6. Yoshlarda kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlik tushunchalarini shakllantirish.

Yoshlarda mana shunday tafakkur tarzini rivojlantira olsak, Vatan osoyishtaligi va el-yurt tinchligi g'oyasi ustuvor bo'lib, milliy g'urur, milliy iftixor jamiyatimizning poydevoriga aylanishiga erishamiz.

Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash texnologiyalari yigirma birinchi yuz yillikda, insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasida qadam qo'ydi. Dunyoda keng ko'lamdagi o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari urfga aylanmoqda. Texnologiyalar asrida ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi innovatsiyalar mehnat samaradorligini juda rivojlantirib yubordi. Hozirda yangi texnologiyalar barcha sohalarda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtayi nazardan yondashish ma'naviyatni targ'ib qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash yangi innovatsion texnologiya asosida olib borilganida, tadbirlarning ketma-ketligi, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar o'z o'rnnini topadi. Ularning muhimligi shundaki, masalan, milliy mafkura to'g'risida ko'p va noo'rin gapiraverish targ'ibotda me'yorning buzilishiga sabab bo'lib, teskari samara berishi mumkin. Targ'ibot texnologiyasida ma'naviyat va milliy mafkura mazmun-mohiyati bilan uni targ'ib qilish shakl hamda vositalarining mutanosibligi samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Milliy mafkuraning quyidagi maqsadlarini ro'yobga chiqarish bugungi kunning ijtimoiy-siyosiy jabhadagi dolzarb vazifalari sirasiga kiradi:

- muayyan g'oyaga ishontirish;
- uyushtirish;
- safarbar qilish;
- ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- harakatlar dasturini tuzish;

Ushbu maqsadlarga erishish xalqimiz oldida turgan milliy mafkuraning bosh g'oyasi – "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" yuz burishimizga asos bo'ladi.

Targ'ibot ma'naviyat mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan samaraga erishish mumkin. Jumladan, ma'naviyatni targ'ib qilishda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar quyidagi *tamoyillarga* amal qilishi maqsadga muvofiq:

- "uzluksizlik;
- izchillik;
- faollik;
- mafkurani e'tiqodga aylantirish;
- ish bilan so'z birligi;
- shaxsiy ibrat;

•hayotiylik (yutuqlar bilan birga kamchiliklarni ham ko'rsatish)".[4]

Mazkur targ'ibot tamoyillari ma'naviyatni inson qalbi va ongiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiylib, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, jinsi, ma'lumoti kabi xususiyatlari hisobga oladi. Targ'ibot olib borishda sanab o'tilgan tamoyillarning muayyan guruh xususiyatlariga mosligini ta'minlash targ'ibot samaradorligini ta'minlaydigan asosiy shartlardan hisoblanadi.

Targ'ib qilinayotgan g'oyalarning inson ongida axborot tarzida o'rnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning qalbiga yetib borganidagina, chuqur o'rnashadi. Buning uchun esa auditoriya targ'ibotchining ma'naviyatga chuqur ishonchini his qilishi kerak. Lekin targ'ibotda g'oyalarga e'tiborni qaratish bilan ham qanoatlanib bo'lmaydi. Chunki e'tiborni tortish - targ'ibotning dastlabki bosqichi, xolos.

Bugungi voqelik ma'naviyatni zamonaviy texnologiyalar orqali targ'iboti masalasiga alohida e'tibor berishni talab qilmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda mafkura targ'ibotini eng ahamiyatli masalalardan biri ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, unga ham innovatsiyon texnologiyalar, usullar, vositalarni jalb qilish foydadan holi emas, degan xulosaga kelish mumkin. Ma'naviyat targ'ibotining samaradorligini oshirish vazifasi ham bu jarayonda yangi texnologiyalarni keng qo'llash zaruratini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda dunyoda keng ko'lamdagi o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari urfga aylanmoqda. Texnologiyalar asrida ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi innovatsiyalar mehnat samaradorligini juda rivojlantirib yubordi. Hozirda innovatsiyon texnologiyalar barcha sohalarda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtayi nazardan yondashish ma'naviyatni targ'ib qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash yangi innovatsion texnologiya asosida olib borilganida, tadbirlarning ketma-ketligi, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar o'z o'rnini topadi. Ularning muhimligi shundaki, masalan, milliy mafkura to'g'risida ko'p va noo'rin gapiraverish targ'ibotda me'yorning buzilishiga sabab bo'lib, teskari samara berishi mumkin. Targ'ibot texnologiyasida ma'naviyat va milliy mafkura mazmun-mohiyati bilan uni targ'ib qilish shakl hamda vositalarining mutanosibligi samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Khudayberganovich T.T. (2020) The importance of the use of innovative technologies in raising the spirituality of young people. EPRA International journal of Multidisciplinary Research (IJMR). 6 (11) 25-26.
2. Пригожин А.И. Современная социология организаций. – Москва: ACT, 1995. –С. 185.
3. Qarang: Макбрайд У. Глобализация лишкультурный диалог // Вопросы философии, 2003. №1. С. 79-89.

Solijonov Jasurbek Valeriy o'g'li. Fanlararo hamkorlikda bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda ma'naviy tarbiya masalalari.....	566
Соатова Нигина Камол кизи. Вопросы духовного воспитания в идеях джадидизма.....	569
Soqiyev Xurshid. Axborotlashgan jamiyat xulq-atvor modellarining o'zgarishi.....	574
Suleymanov Sarvar Sunatullayevich. Yoshlar tarbiyasida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning roli.....	576
Tadjibayeva Sh.A. Yoshlarning ijtimoiy mavqeい rivojlantirish.....	579
Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda innovatsyon texnologiyalar tasnifi.....	582
Temirov Humoyunmirzo Najmuddinovich. Korrupsiyaga qarshi harakatlanuvchi omillarining ob'ektiv xususiyatlari.....	587
Tilavov O'ktamjon G'ulomovich. O'zbekistonda ta'lif tizimining rivojlanish istiqbollari: milliy model va innovatsion yondashuvlar.....	592
Tolipov Baxtiyor Xamitovich. Uchinchi renessans poydevorini yaratishda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning falsafiy masalalari.....	598
Turgunov Azim Turgunovich. Axborot madaniyatini shakllantirishi tarixi va rivojlantirish shart-sharoitlari va vositalari.....	602
Turopov Yorqin Sharapovich, Tirkashyeva Nozima Yorqin qizi. Abdurauf Fitratning oilada farzand tarbiyasi haqidagi qarashlari.....	606
Tursunov Baxodir Nishonovich. Ma'naviy tarbiyaning tarixiy va ilmiy asoslari: unda oilaning o'rni.....	612
To'ychiyev Berdiqul To'raqulovich. Shaxs siyosiy madaniyati va milliy, ma'naviy qadriyatlar tizimi.....	617
Умаралиев Вали Эргашевич, Содиков Хуршидбек Солижон угли. Узлуксиз таълим жараёнида хукуқий фанларнинг ўрни ва аҳамияти.....	621
Uraimjonova Malika. Meros va kelajak: tarixiy an'analarning zamonaviy jamiyatdagi roli.....	624
Usmonaliyev Bekzod Aziz o'g'li. "Uchinchi rennesans" poydevorini yaratishda ma'naviy tarbiyaning o'rni.....	628
Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi. Milliy matbuot sahifalarida ta'lif-tarbiya masalalarining yoritilishi (xx asr boshlarida).....	631
Usmonova Sevinchoy Usmon qizi. Ma'naviy tarbiyani amalga oshirishning asosiy mexanizmlari va omillari.....	635
Утамурадов Акбар. Узлуксиз таълимда шахс маънавий тарбиясини шакллантириш ва ривожлантиришнинг тизимли ёндашуви.....	641
Вагизов Руслан Рустемович. Актуальные задачи формирования и развития духовного образования в системе непрерывного образования.....	646
